

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH VA HUDUDIIY RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA

Matsabirova Durdona

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish(nemis tili)
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi durdonamatsabirova@gmail.com*

Yusupova Gulxumor

*Ilmiy rahbar: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti roman-german filologiyasi
kafedrası o'qituvchisi gulkhumor.yusupova@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada Xorazm viloyatida turizm xizmatlari sifatini oshirish va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xorazmning boy tarixiy, madaniy merosi va zamonaviy infratuzilmasi asosida yangi xizmat turlari joriy etilishi, kadrlar tayyorlash, mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish va xalqaro tajriba asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Hududiy branding va marketing strategiyalari, raqamli texnologiyalar yordamida xizmatlar sifati va raqobatbardoshlik oshirilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Turizm, xizmatlar sifati, hududiy raqobatbardoshlik, infratuzilma, branding, innovatsiya, Xorazm viloyati

Abstract: This article analyzes the modern directions for improving the quality of tourism services and ensuring regional competitiveness in Khorezm region. It examines the introduction of new types of services based on Khorezm's rich historical and cultural heritage and modern infrastructure, the preparation of qualified personnel, the stimulation of local entrepreneurship, and the improvement of management systems based on international experience. The study highlights the enhancement of service quality and competitiveness through regional branding, marketing strategies, and digital technologies.

Keywords: tourism, service quality, regional competitiveness, infrastructure, branding, innovation, Khorezm region

Аннотация: В данной статье анализируются современные направления повышения качества туристических услуг и обеспечения региональной конкурентоспособности в Хорезмской области. Рассматриваются внедрение новых видов услуг на основе богатого исторического и культурного наследия и современной инфраструктуры Хорезма, подготовка квалифицированных кадров, стимулирование местного предпринимательства и совершенствование системы управления на основе международного опыта. Подчеркивается повышение качества услуг и конкурентоспособности за счет регионального брендинга, маркетинговых стратегий и цифровых технологий.

Ключевые слова: туризм, качество услуг, региональная конкурентоспособность, инфраструктура, брендинг, инновации, Хорезмская область.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston, xususan, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Turizm xizmatlari sifatini oshirish va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash zamonaviy boshqaruv, innovatsion yondashuvlar va infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali amalga oshirilmoqda. Xorazmning boy tarixiy va madaniy merosi, zamonaviy infratuzilmasi va yangi xizmat turlari bu hududda turizm raqobatbardoshligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Xorazmda turizm infratuzilmasini yaxshilash maqsadida yo'llar, ichimlik suvi, elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda. Urganch va Xiva shaharlarida "turizm ko'chalari" tashkil etilib, mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari va zamonaviy ovqatlanish obyektlari barpo etilmoqda. Bu esa turistlar uchun qulaylik va xizmat sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

An'anaviy ekskursiyalardan tashqari gastronomik, agro-, ekologik, tibbiy, sport va ekstremal turizm yo'nalishlari joriy qilinmoqda. Raqamli texnologiyalar (onlayn bron qilish, mobil ilovalar, raqamli gidlar) orqali xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari kengaymoqda.


Malakali kadrlar tayyorlash va ularning zamonaviy bilim-ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni biladigan, xizmat ko'rsatish madaniyatiga ega xodimlar soni ortmoqda.

Mahalliy aholi va tadbirkorlarni turizm faoliyatiga keng jalb qilish, hunarmandchilik va xalq amaliy san'atini rivojlantirish xizmat turlarini diversifikatsiya qilmoqda. Imtiyozlar va kreditlar orqali kichik biznesni rivojlantirish rag'batlantirilmoqda.

Xorazmda xorijiy tajribalar asosida turizm boshqaruvi va marketing strategiyalari shakllantirilmoqda. Xalqaro investitsiyalar va hamkorlik loyihalari orqali hududiy raqobatbardoshlik kuchaymoqda.

1-jadval:

Xorazmning raqobatbardoshligini ta'minlash omillari



Xorazmning tarixiy obidalari va milliy madaniyati hududiy brendni shakllantirishda asosiy rol o'ynamoqda. Xiva shahrining UNESCO merosi sifatida e'tirof etilishi turistlar uchun jozibadorlikni oshirmoqda. Turizm xizmatlari sifatini oshirish uchun mijozlarning

fikr-mulohazalarini o'rganish va xizmatlarni doimiy monitoring qilish amaliyoti joriy qilingan. Xalqaro sifat standartlari va sertifikatlash tizimlari qo'llanilmoqda. Davlat va xususiy sektor o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish orqali boshqaruv tizimi takomillashtirilmoqda. Zamonaviy marketing va raqamli texnologiyalar yordamida turistik xizmatlar raqobatbardoshligi oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar

Xorazm viloyatida turizm xizmatlari sifatini oshirish va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun quyidagi zamonaviy yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Infratuzilmani tubdan modernizatsiya qilish va yangi xizmat turlarini joriy etish;
- Kadrlar tayyorlash va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish;
- Mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish va xalqaro tajribani joriy qilish;
- Hududiy brending va marketing strategiyalarini amalga oshirish;
- Turizm xizmatlari sifatini doimiy monitoring qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish.

Bu yo'nalishlar Xorazm viloyatini nafaqat respublika, balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh turistik hududga aylantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Turizm to'grisidagi qonun "Xalq so'zi" gazetasi № 147 19.07.2019. 1-bet
2. Shamurotov S.B. Xorazm viloyatida turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil. 435-440.
3. Ibragimov N.S. Turistik hudud raqobatbardoshligiga oid nazariy bilimlarning shakllanish bosqichlari. Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №5(7) 2022. 21-30.